

**NOYO'NALISH TALABALARGA ONLAYN TEXNOLOGIYALAR
ASOSIDA XORIJUY TILLARNI O`QITISHNING PEDAGOGIK
FUNKSIYALARI.**

Ashurali Mirzayev

Teacher, Fergana State University

Annotatsiya: Bugungi rivojlangan dunyoda ingliz tilini ikkinchi yoki chet tili sifatida o'rgatish bo'lajak mutaxassislarini tarbiyalashning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Ushbu maqolada oliy ta'lim talabalariga onlayn texnologiya yordamida ingliz tilini o'rgatishning asosiy vazifalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: onlayn texnologiya, ingliz tilini o'qitish usullari, Kahoot, Jeopardy, motivatsiya.

Аннотация: В современном развитом мире преподавание английского как второго или иностранного языка является одной из основных составляющих подготовки будущих специалистов. В данной статье описаны основные задачи преподавания английского языка студентам вузов с использованием онлайн-технологий.

Ключевые слова: онлайн-технологии, методы преподавания английского языка, Kahoot, Jeopardy, мотивация.

Annotation: In this globalized world, teaching English as a second or foreign language is one of the key components of educating future professionals. In this article, the main functions of teaching English to higher education students with the help of online technology are stated.

Key words: online technology, English teaching methods, Kahoot, Jeopardy, motivation.

Chet tillarini o'qitishning har qanday usul hamda metodlari kabi ingliz tilini o'qitishda onlayn texnologiyalardan foydalanish metodi ham ma'lum bir nazaryalar, prinsip hamda modellarga asoslangan holda tashkil etilishi zarur. Chet tilini o'rgatish soxasida xorijiy metodistlardan quyidagilar soxaga o'zlarining salmoqli xissalarini qo'shganliklari bilan ajralib turadilar, jumladan S.Krashen, G.Lozanov, M.Berlits,

D.Larsen-friman, M.Long, E.Rod va boshqalar. Rus olimlaridan esa L.Vygotskiy, A.Luria, S.Bubnovskiy, V.Proplar ham chet tillarini o'qitishning turli xil metod va modellarini ishlab chiqqanligi hamda tadqiq etganligi bilan ajralib turadilar. Yurtimizda yetishib chiqqan metodik olimlardan J.Jalolov, M.Gulyamova, B.Qulmatov, I.Sultonov, Sh.Rahimov va boshqalar ham chet tilini o'qitishning nekbin xususiyatlari ustida chuqur tadqiqotlar olib borib chet tilini o'qitish metodikasi soxasiga o'zlarining ulkan xissalarini qo'shganlar. Quyida esa biz yuqoridagi va boshqa olimlarning chet tillarini o'qitish borasidagi bilimlaridan foydalangan holda chet tillarini o'qitishda onlayn texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tishning foydali va kamchilik tomonlarini tadqiq qilgan holda alohida bir metodni taklif etmoqdamiz.

Bugungi kunda ingliz tilini va boshqa chet tillarini o'qitishda raqamli hattoki onlayn texnologiya va vositalardan foydalanish ko'pchilik pedagoglar uchun yangilik hisoblanmaydi. Lekin shu bilan birga, ushbu yo'naliш O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida va boshqa ta'lim muassasalarida anchayin yangi soxa va yo'naliш hisoblanadi. Shunday qilib bugungi kunda ushbu muassasalarda ingliz tilini chet tili sifatida o'qitish jarayonlarida qanday muammolar kuzatilmoqda, bu muammolarni yechishda qanday yechimlardan foydalanish mumkin degan savolga quyida atroficha to'xtalib o'tishga harakat qilamiz.

Oliy ta'lim talabalariga chet tillarini o'rgatishda uchrayotgan muammolardan birinchisiga to'xtalishdan oldin, bugungi kun ta'lim tizimining asosiy maqsadi nima va u qanday vazifalarni o'z ichiga oladi degan savolga javob berib o'tsak, zero bu quyida biz ta'riflammoqchi bo'lganimiz muammoni yaxshiroq tushunishimiz hamda ushbu muammoning yechimlarini chuqurroq tahlil qilishimizga yordam beradi. A. Yurovaning fikricha eng zamonaviy ta'limning maqsadi faqatgina insonni bilim olishga o'rgatishdan iboratdir[1, 137].

Ingliz tilini asosan oliy ta'limning nofilologik ta'lim yo'naliшlari talabalariga chet tili sifatida o'qitish jarayonida onlayn texnologiyalardan foydalanishning asosiy prinsiplari. Bu metod shunday metodki o'zida quyidagi vazifalarni jamlaydi.

	Onlayn muloqotni tashkil etish		Virtual taqdimotlar yaratish va ijro etish		Onlayn test va baholashlar yaratish va o'tkazish
	Virtual simulatsiyadan foydalanish		Onlayn o'yinlar yaratish va o'tkazish		Vidyo konferensiylar tashkil etish
					Autentik materiallardan foydalanish

1-jadval. Ingliz tilini o'rgatishda onlayn texnologiyalardan foydalanishning asosiy vazifalari.

Yuqoridagi onlayn texnologiyalar ning asosiy vazifalariini tushuntirib o'tadigan bo'lsak, bularidan birinchisi, onlayn muloqotni tashkil etish bo'lib, bu vazifa ingliz tilini chet tili sifatida o'qitish jarayonlarida eng muhim mashg'ulotlardan biri hisoblanadi. Chunki, Amandjanivna yozishicha chet tillarida o'qitishning eng yangi va samarali usullaridan biri til o'r ganuvchilar o'rtasida o'rganilayotgan tilda muloqotga asoslangan mashg'ulotlardan foydalanish hisoblanadi [2, 141].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Юрова Ольга Авинеровна (2013). Функции информационных технологий Веб 2. 0 в обучении иностранному языку. Вестник Таганрогского института имени А. П. Чехова, (1с), 136-141.).
2. Функции информационных технологий Веб 2. 0 в обучении иностранному языку. Вестник Таганрогского института имени А. П. Чехова, (1с), 136-141.
3. Toirova, N. I. (2019). The significance of the symbols of Mirror and Portrait in teaching Symbolism. *Sign*, 1, 22.
4. Mamajanova, M. (2021). Model concept modeling in linguistics types of linguistic models. Экономика и социум, (1-1), 160-163.
5. Ashurali, M. (2022). Hozirgi kundagi ta'limga tizimida onlayn texnologiyalarga asoslangan metodni ta'limga joriy qilishning aktualligi. *Involta Scientific Journal*, 1(13), 25-28.

6. Mirzayevna, M. (2021). Innovative technologies in foreign language teaching methodology. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(12), 465-467.
7. Rustambek, O., & Ashurali, M. (2022). The methods of teaching foreign languages. *Involta Scientific Journal*, 1(13), 106-110.
8. Alimjanova, M. (2023). Utilizing technology to improve students' communicative language skills. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(5).
9. Akhmedova, M. (2012). Characteristics of bronchial asthma associated with allergic rhinosinusitis in children. *Medical and Health Science Journal*, 11, 39-43.
10. Mohira, A., & Isakjon, T. (2022). Methodology of english language. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 3, 68-71.
11. Gafurova, N. I. (2021). Structural-semantic classification of construction terms in English and Uzbek languages. *ACADEMIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 571-575.
12. Oxunov, A. O. O. (2021). Ingliz va o‘zbek tillarida undov so‘zlar (interjection) ning ifodalanishi. Academic research in educational sciences, 2(12), 401-406.
13. Mirzayev, A. (2023). Psychological aspects and features of teaching foreign languages to ESP students through online technologies. *Involta Scientific Journal*, 2(2), 80-83.